

**XIX ASRNING O'RTALARIDA BUXORO AMIRLIGIDA SAVDO MUNOSABATLARI
(A.BYORNS MATERIALLARI ASOSIDA)**

Sharopov Dilshod

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi.

d.r.sharopov@buxdu.uz

Rajabov Oybek

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673352>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz sayyohi va tadqiqotchisi A. Byornsning ma'lumotlari asosida XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligidagi savdo holati yoritiladi.

O'sha davrda Buxoro Rossiya imperiyasi bilan faol iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ygan bo'lib, bu davlat uning asosiy tashqi savdo hamkoriga aylangan edi. Biroq Angliya o'zining mintaqadagi ta'sirini saqlab qolish maqsadida Rossiyaning Buxoro bilan savdosiga to'sqinlik qilish uchun jiddiy harakatlar qilgan. Jumladan, ingliz tovarlari Shimoliy Hindiston, Xitoy, Fors va Afg'onistonda asta-sekin rus mahsulotlarini bozordan siqib chiqara boshlagan.

A.Byornsning yozishicha, XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida savdo aloqalari o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga yetgan. Davlat siyosati ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga faol ko'maklashgan. Buxorodagi bozoru karvonsaroylar, Buyuk ipak yo'li orqali shakllangan yo'nalishlar savdo markazi sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan bozor narxlari qat'iy nazorat ostida ushlab turilgan, bu esa davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarga bo'lgan faol aralashuvni ko'rsatadi. Buxoroga Yevropa, Hindiston, Xitoy va Forsdan savdogarlar oqib kelgan, bu esa shaharning Markaziy Osiyodagi yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylanishiga olib kelgan.

A.Byorns Buxoro amirligining XIX asr birinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy holatini chuqur o'rgangan ilk g'arb tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. Uning kuzatuvlari mintaqaviy va xalqaro savdo aloqalarini, yirik davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatni hamda amirlikning ichki iqtisodiy siyosatini anglash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: A. Byorns, savdo, Buxoro, Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, bozor.

Kirish. Aleksandr Byorns faoliyatida Buxoro bozori alohida o'rin tutgan. U ingliz imperiyasining yoyilish siyosatining aniq namoyandasi bo'lib, Britaniya doimiy ravishda o'z sanoat mahsulotlari uchun yangi bozorlar qidirar edi. Buxoro, o'zining Rossiya bilan mustahkam iqtisodiy hamkorligi tufayli, Angliya uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki inglizlar har qanday yo'l bilan ruslarning mintaqaviy savdoda ustunlik qilishiga to'sqinlik qilishni maqsad qilgan edi. [7, b.23]

Natija va mulohazalar. XIX asrda Buxoro bozori Rossiya uchun bir qator iqtisodiy va geosiyosiy sabablarga ko'ra juda muhim rol o'ynagan.

Avvalo, Buxorodan olinadigan xom ashyo Yevropaga nisbatan ancha arzon narxlarda mavjud bo'lib, bu Rossiya sanoati uchun resurslar yetishtirish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini bergan. Ikkinchidan, Rossiya manufaktura va sanoat mahsulotlari Yevropa raqobatdoshlari bilan raqobatlasha olmasligi sababli, mamlakat yangi bozorlarga, jumladan Buxoro kabi an'anaviy savdo markazlariga qiziqish bildirgan. Bundan tashqari, ingliz tovarlarining Shimoliy Hindiston, Xitoy, Fors va Afg'oniston bozorlarida ustunlik qilishi, Rossiyani o'z ta'sir doirasini saqlab qolish uchun Markaziy Osiyoda, xususan Buxoroda mustahkam o'rin egallashga majbur qilgan. Ayniqsa, 1860-yillarda AQShda fuqarolar urushi boshlanganidan keyin amerika paxtasi eksportining keskin kamayishi Buxoroni Rossiya uchun yanada muhim xom ashyo bazasiga aylantirgan. Nihoyat, Rossiya imperiyasi chegaralarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida Markaziy Osiyo xonliklari ustidan nazoratni mustahkamlash zarurati ham Buxoro bozoriga bo'lgan qiziqishni kuchaytirgan. Bu omillarning barchasi inglizlarning diqqat markazida bo'lib, ular Rossiyaning mintaqadagi ta'sirini cheklash maqsadida Buxoro bozoriga kirishini to'sishga harakat qilishgan.

A.Byornsning ta'kidlashicha, Buxoroda savdo-sotiq jarayonlari rivojlanishning yuqori bosqichiga chiqqan bo'lib, davlat bu sohaning taraqqiyotiga har jihatdan ko'maklashgan.

Uning yozishicha: "Savdo-sotiqni Buxoro hukmdorlari singari qo'llab-quvvatlagan boshqa biron bir boshqaruv tizimini ko'rmaganman. So'nggi hukmdor davrida bojxona bojlari faqatgina tovarlar sotuvga chiqarilgach undirilgan bo'lib, bu tartib Buyuk Britaniya bojxonasining garov (zaklad) tizimiga o'xshash tarzda tashkil etilgan". [1, b.414].

Amirlikdagi savdoning shubhasiz markazi uning bozorlari hisoblangan. Buxoroning bozorlari va karvonsaroylari — bu yerga Yevropadan tortib Uzoq Sharq, Xitoy va Hindistongacha bo'lgan deyarli butun savdo olamining vakillari oqib kelardi — amalda eng boy va turli-tuman, ayni paytda nihoyatda qimmatli iqtisodiy hamda harbiy-siyosiy axborot manbai bo'lgan. A.Byorns gavjum Buxoro bozorlarini va odamlar bilan liq to'la mehmonxonalarni ziyorat qilgan chog'larida, karvonboshilar va savdogarlarning savdo yo'llaridagi sarguzashtlari, tovar bozorlaridagi holat, bojxona postlari va soliq yig'implari, mahsulotlarning sifati va narxi, mahalliy hukmdorlarning savdogarlarga munosabati hamda Rossiya, Hindiston, Xitoy va Angliya o'rtasidagi raqobat haqida hikoya qilgan uzoq suhbatlarini diqqat bilan tinglagan.

Sharq aholisi aynan shu yerda bozorda o'zining butun betakrorligi bilan namoyon bo'ladi. Yangi choponda (kiyimda) xaridor oldinga-orqaga yurib, shu tovushning kuchini tekshirayotganini kuzatish menga katta zavq bag'ishlardi. Bu kiyimlarning barchasi mahalliy hunarmandchilik mahsuloti bo'lib, narxlari nihoyatda arzon; ayni shu sababli Buxoro kiyim bozori Xitoy Tatariyasigacha bo'lgan barcha mo'min-musulmonlarni zamonaviy liboslar bilan ta'minlaydi. Cho'ldan ko'pincha qirg'izlar, qipchoqlar va qalmoqlar ham bu yerga kirib kelishadi, va ko'zlari qisq, iyagi oldinga chiqqan yovvoyi tatar o'zining qo'pol ot terisidan tikilgan kiyimini yengil "yaktak" (yozgi kiyim turi) bilan almashtirib, quvonchdan kuladi.

Uning uchun bu yer – taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisidir; Buxoro – bu uning uchun ham Parij, ham Londondir. [2, b.269]

A.Byorns va A.Vamberining ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro bozorlarida asosan Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar ustunlik qilgan.

A. Vamberi shunday deb yozadi: “Men safdoshlarim bilan birga yurib, do‘konlarga nazar tashlab bordim; ularning aksarida rus galantereya va manufaktura mahsulotlari mavjud edi, Orenburg orqali olib kelingan g‘arbiy Yevropa tovarlari esa juda kam edi. Bu uzoq shaharda sayyoh uchun bu mahsulotlar faqatgina bitta jihati bilan qiziq: chit parchasini yoki unga yopishtirilgan zavod belgisini ko‘rganida, u go‘yo vatandoshlik hissini tuyadi. Qanday hayajonga tushganimni eslayman — “Manchester”, “Birmingem” so‘zlarini o‘qiganimda yuragim qanchalik tez urganini, va bu so‘zlarni shunchaki o‘qishim bilan o‘zimni fosh qilib qo‘yishdan qanchalik qo‘rqqanimni tasvirlab bo‘lmaydi! Shahar bozorlarida yirik do‘konlar va yirik savdogarlar juda kam. Garchi 284 ta do‘koni bo‘lgan Rasteyi chit furush (ya‘ni chit — mato savdosi qilinadigan savdo qatori)dan tashqari shaharning yana ko‘plab joylarida chit, kalenkor (Kalkuttada tayyorlanadigan astar mato) va perkal bilan savdo qilinsada, men qat‘iy ishonch bilan ayta olamanki, mening do‘stlarim Tabrizdagi Xanxartda aynan shunday mahsulotlarning o‘zidan Buxoro shahriga qaraganda ko‘proq miqdorda sotadi. Buxoroga Sharqning yuragi, Markaziy Osiyoning poytaxti degan nom berilgan bo‘lsa-da, savdo hajmi bu maqomga har doim ham mos tushavermaydi”.[2, b. 139]

U Buxoroning Astraxan, Orenburg, Ural va Janubiy Sibir bilan savdo aloqalari nihoyatda jonli bo‘lganini alohida ta’kidlaydi. Aynan shu hududlardan Markaziy Osiyo xonliklariga shakar, qalay, quyma temirdan tayyorlangan qozonlar, chelaklar, shoyi matolar, zig‘ir va chit matolari, metall idish-tovoqlar, qurol-yarog‘, temir, mis, temirchilik buyumlari hamda charm mahsulotlari olib kirilgan. Buxorolik savdogarlar esa Rossiyaga paxta, quruq mevalar, jonli hayvonlar, xom terilar, ishlab chiqarilgan charmlar va boshqa turdagi tovarlarni eksport qilganlar. A.Vamberi juda qiziqarli bir kuzatuvni qayd etadi: “Butun Markaziy Osiyoda shunday bir uy yoki hatto bitta ham kibitka (ko‘chma chodir) yo‘qki, u yerda Rossiyada ishlab chiqarilgan biror buyumni uchratib bo‘lmasa”[1, b.15].

Sayyohning ta’kidlashicha, Rossiyaning sanoat mahsulotlari Markaziy Osiyo bozorlarida ingliz tovarlari bilan muvaffaqiyatli raqobat qila olgan. Rossiya uchun Buxoro Sharq mamlakatlariga tovarlar eksport qilishda, shuningdek, Osiyo mahsulotlarini import qilishda o‘ziga xos asosiy oraliq savdo punkti bo‘lgan. Buxoraning tashqi savdo aloqalarida Rossiyadan keyingi ikkinchi o‘rinni Qashqar egallagan.

Rus tadqiqotchisi Y.Meyendorfnig ma’lumotlariga ko‘ra, har yili Buxorodan Qashqarga 700–800 ta yuklangan tuyadan iborat karvonlar yo‘l olgan. U shunday yozadi: “Buxoroliklar Qashqarga Buxoroda sotilmay qolgan rus tovarlarini, shuningdek, ruslar tomonidan G‘uldja, Aksu va Qashqarga yuborilgan mahsulotlarni olib borishgan”[6, b.128].

Boshqa bir rus tadqiqotchisi F.I.Lobisevich shunday deb yozgan edi: “Buxoro, o‘zining geografik joylashuvi tufayli sanoat xususiyatiga ega bo‘lmagan aholisi bilan, ayniqsa Rossiya bilan tinch savdo aloqalarini juda qadrlardi va bu, albatta, bizning mahsulotlarimizni sotish uchun eng muhim Markaziy Osiyo bozorlaridan biri bo‘lib qolardi”. [5, b.63]. Shuningdek, yana bir mashhur rus olimi P.V.Golubkov A.Byornsning kitobiga yozgan kirish so‘zida quyidagilarni qayd etadi: “Buxoro bozorida rus savdogarlari so‘nggi 300 yil davomida Do‘ng‘angiston bilan doimiy raqobatlashib kelgan va Rossiya va Buxoro o‘rtasidagi aloqalar shunchalik chambarchas bog‘langanki, Moskvada Buxoro aholisi ko‘plab yashaydi, va aksincha, Buxoroda ham aynan shunday holat mavjud”. [3, b.5]

Tadqiqotchilar Buxoro va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlarining jadal rivojlanishini ta'kidlashgan. B.I.Iskandarov va R.M.Masovning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida Rossiyadan Markaziy Osiyoga eksport qilinadigan tovarlar miqdori 1 million rublga teng bo'lsa, 1825 yilga kelib, bu miqdor 4 million rublga yetgan [4, b.12]. Buxoro amirligi Rossiya mahsulotlari uchun eng muhim savdo bozorlaridan biri bo'lgan. Buxoro bozorlarida rus tovarlari, xususan, attorlik mollari va matolar ustunlik qilgan, va bu tovarlar Rossiyaning boshqa Sharqiy Osiyo davlatlari bilan savdosi uchun tranzit bo'lib xizmat qilgan.

Buxoro amirligi, shuningdek, Buyuk Britaniya bilan ham savdo aloqalarini rivojlantirishga intilgan. A.Byorns, inglizlarning Hindiston orqali savdo aloqalarini rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'kidlaydi. U, shuningdek, Buyuk Britaniya savdo flotining Gang va Hind daryolarida ham Volga daryosi kabi qulay sharoitlarga ega ekanligini ta'kidlaydi [1, s.420]. Bu Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyodagi savdo tarmog'ini kengaytirish imkoniyatlarini oshirgan. Shuningdek, bu holat Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi iqtisodiy raqobatni kuchaytirgan va Buxoro amirligi o'zining markaziy joylashuvi tufayli ushbu raqobatning faol ishtirokchisiga aylangan.

Buxoro hunarmandlari pichoq, o'roq, qilich, xanjar, bolta, kamon, o'q va qalqon karoquchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullangan, hatto to'plar yasashgan.

Zargarlik, kulolchilik, yog'ochsozlik ham rivojlangan muhim kasb-hunarlar bo'lib, yog'ochdan deraza va eshik ramkalari, beshik, arava, sandiq, qayiq va boshqa buyumlar tayyorlangan, ayniqsa o'yma naqshli yog'och buyumlar yuqori qadrlanilgan. Qamishdan savat to'qish, uy sharoitida gilam, palos, ot egar, pichoq qinlari va charm sumkalar ishlab chiqarish keng tarqalgan edi. XIX asrning 40-yillarida Buxoroda 38 ta karvonsaroy mavjud bo'lib, ularga kelgan mahalliy va chet ellik savdogarlar joylashgan; bu karvonsaroylarda omborxonalar, do'konlar, ustaxonalar va mehmonxonalar joylashgan bo'lib, ularning bir qismi amirga, boshqalari xususiy shaxslar yoki vaqf mulki hisoblangan. Yillik 12-15 ming tuya yukining Buxoro karvonsaroylariga yetib kelishi mintaqaning savdo markazi sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi, savdo ishlarini esa amir tomonidan tayinlangan karvanboshi boshqargan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi Markaziy Osiyodagi muhim iqtisodiy va geosiyosiy markazlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning iqtisodiy hayoti xorijiy tadqiqotchilar, xususan, ingliz sayyohi A.Byorns tomonidan batafsil o'rganilgan. Bèrnsning kuzatuvlariga ko'ra, Buxoro bozorlari nafaqat mintaqaviy savdo markazi, balki xalqaro iqtisodiy raqobat, ayniqsa Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi kurash maydoniga aylangan. Buxoro amirligining savdo siyosati, boj tizimi, karvonsaroylari va hunarmandchiligi bu davrda yuqori darajada rivojlangan bo'lib, Rossiya sanoat mahsulotlari Buxoro bozorlari orqali boshqa Sharqiy mamlakatlarga tarqatilgan. Bunga javoban, Angliya ham o'z savdo manfaatlarini ilgari surishga harakat qilgan, hatto Ganga va Hind daryolari orqali savdo yo'llarini ochish zarurligini ilgari surgan. Buxoro bozorlari ustidan nazorat o'rnatish har ikkala davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Shunday qilib, A.Byornsning asarlari Buxoro amirligining XIX asr o'rtalaridagi iqtisodiy dinamikasini ochib berish bilan birga, bu hududning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rni va ahamiyatini ham yoritadi.

REFERENCES

1. Бёрнс А. Путешествие в Бухару. –Т. II. – М.,1848.
2. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб.,1865.
3. Бунаков Е. В. К истории сношений России со среднеазиатскими ханствами. //Советское востоковедение. Вып. II. 1921, с.21.
4. Хайруллаев М.М. Ўзбек дипломатияси тарихидан (Тарихий очерк ва лавхалар). –Т. 2003. –355 б.
5. Лобысевич Ф. И. Поступательное движение в Среднюю Азию в торговом и дипломатическо-военном отношениях. Дополнительный материал из истории Хивинского похода 1873 г. (из официальных источников). - СПб, 1900.
6. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975.
7. Халфин Н.А., Рапсадина Е.Ф. Николай Ханьков –востоковед и дипломат. –Москва: Наука, 1977. 278 с.
8. Ефремов Филлип. Десятилетнее странствование и приключения в Бухарин, Хиве, Персии и Индии и возвращение оттуда через Англию в Россию. –Москва: Восточная лит., 1995. –С.147-170.